



TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KENGAYTIRISHDA DAVLAT SOLIQ SIYOSATINING O'RNI

Muallif: Ospanova Dinara Xamidovna

Elektron pochta: dinara.ospanova@soliq.uz

Telefon: +998 90 345 65 56

Annotatsiya. Ushbu tezisda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishda davlat soliq siyosatining o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda soliq siyosatining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, soliq yukining maqbulligi hamda soliq imtiyozlarining kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari va ularning tadbirkorlik muhitini yaxshilashdagi roli baholandi. Xorijiy tajriba asosida soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, soliq siyosati, soliq imtiyozlari, kichik biznes, fiskal siyosat, iqtisodiy o'sish.

Аннотация. В тезисе проведён научный анализ роли государственной налоговой политики в расширении предпринимательской деятельности. Рассмотрено влияние налоговых льгот и реформ на развитие малого и среднего бизнеса в Республике Узбекистан. На основе зарубежного опыта сформулированы предложения по совершенствованию налоговой политики.

Ключевые слова: предпринимательство, налоговая политика, налоговые льготы, малый бизнес, экономический рост, фискальная политика.

Absract. This thesis analyzes the role of state tax policy in expanding entrepreneurial activity. The study examines tax incentives, fiscal reforms, and their impact on small and medium-sized enterprises in Uzbekistan. Based on international experience, recommendations for improving tax policy are proposed.



Keywords: entrepreneurship, tax policy, tax incentives, small business, economic growth, fiscal policy.

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlari yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois davlat tomonidan olib borilayotgan soliq siyosati tadbirkorlik muhitini shakllantirish va uni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish va uni chuqurlashtirish jarayonida soliq tizimining samarali tashkil etilishi davlat moliyaviy barqarorligini ta’minlash bilan birga, iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, bu borada soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

1. Davlat soliq siyosatining nazariy asoslari.

Davlat soliq siyosati — bu davlat tomonidan soliqlarni belgilash, joriy etish va undirish orqali iqtisodiy, ijtimoiy hamda moliyaviy maqsadlarga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Uning nazariy asoslari iqtisodiy nazariya, moliya fani va davlat boshqaruvi tamoyillariga tayangan holda shakllanadi.

Davlat soliq siyosati fiskal siyosatning ajralmas qismi bo‘lib, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish bilan bir qatorda iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishga xizmat qiladi. Klassik iqtisodiy nazariyada soliq siyosati iqtisodiy muvozanatni ta’minlash vositasi sifatida qoraladi (Smith, 1776).



Zamonaviy iqtisodiyotda soliq siyosati tadbirkorlik faolligini rag‘batlantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yuqori soliq stavkalari tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligini pasaytirishi mumkin, shu sababli soliq yukining maqbulligi muhim ahamiyat kasb etadi (Stiglitz, 2015).

O‘zbekiston soliq siyosati umumiy iqtisodiy nazariyalar hamda xalqaro amaliy tajribaga tayangan holda shakllanadi. Ushbu siyosatning nazariy asosini soliqlarning fiskal, tartibga soluvchi va ijtimoiy funksiyalari tashkil etadi. Davlat soliqlar orqali byudjet daromadlarini shakllantiradi, iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga intiladi.

Nazariy jihatdan O‘zbekiston soliq siyosatida adolatlilik, barqarorlik, oshkoralik va qulaylik tamoyillariga alohida e’tibor qaratiladi. Soliq yukining iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida mutanosib taqsimlanishi, soliqlarni hisoblash va to‘lash mexanizmlarining aniq belgilanishi soliq siyosatining muhim nazariy asoslaridan biridir.

2. Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishda soliq imtiyozlarining o‘rni.

Soliq imtiyozlari tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning muhim instrumenti hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan soliq tizimi joriy etilgan bo‘lib, bu ularning moliyaviy yukini sezilarli darajada kamaytirdi (O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2020).

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks choralarni o‘z ichiga oladi. Soliq tizimini liberallashtirish, soliq yukini kamaytirish va imtiyozlar tizimini takomillashtirish orqali tadbirkorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhiti shakllantirilmoqda.



Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soddalashtirilgan soliq rejimlari, yangi tashkil etilgan korxonalar uchun vaqtinchalik soliq imtiyozlari, shuningdek, investitsiya va innovatsion loyihalarni amalga oshirayotgan tadbirkorlarga berilayotgan preferensiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Erkin iqtisodiy zonalar va sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun belgilangan soliq imtiyozlari esa hududiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Soliq imtiyozlari tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishda bir nechta yo‘nalishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, soliq yukining kamayishi tadbirkorlarning sof foydasini oshirib, uni ishlab chiqarishni kengaytirish, texnologiyalarni yangilash va yangi loyihalarga yo‘naltirish imkonini beradi. Bu esa iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining tezlashishiga olib keladi.

Shuningdek, soliq imtiyozlari yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishiga rag‘bat yaratadi. Ayniqsa, faoliyatining dastlabki bosqichida moliyaviy resurslari cheklangan tadbirkorlar uchun soliq yengilliklari muhim qo‘llab-quvvatlash mexanizmi hisoblanadi. Natijada bandlik darajasi oshib, aholining daromadlari ko‘payadi.

3. O‘zbekiston Respublikasida soliq islohotlari va tadbirkorlik.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda soliq tizimi tubdan isloh qilindi. Ushbu islohotlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, soliq stavkalarining pasaytirilishi va soliq yukining optimallashtirilishi. Bu tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ortiqcha moliyaviy bosimni kamaytirib, ularning rivojlanishiga qulay sharoit yaratdi.

Ikkinchidan, soliq tizimini soddalashtirish va ma’murchilikni takomillashtirish. Soliq hisobotlarining qisqartirilishi, elektron soliq tizimlarining joriy etilishi va raqamli texnologiyalardan foydalanish tadbirkorlar uchun byurokratik to‘siqlarni kamaytirdi.



Uchinchidan, soliq imtiyozlari va preferensiyalar tizimini takomillashtirish. Investitsiya loyihalari, innovatsion faoliyat, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish va erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun berilayotgan soliq yengilliklari iqtisodiy faollikni oshirmoqda.

Amalga oshirilgan soliq islohotlari tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Avvalo, soliq yukining kamayishi tadbirkorlarning sof daromadlarini oshirib, ularni ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga yo‘naltirish imkonini berdi.

Shuningdek, yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish jarayoni soddalashtirdi. Soliq tizimining tushunarli va shaffof bo‘lishi biznesni qonuniy asosda yuritishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi. Natijada yashirin iqtisodiyot ulushi qisqarib, soliq bazasi kengaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha muhim huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi **PF-5468-son Farmoni** soliq siyosatini liberallashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur islohotlar natijasida soliq turlari qisqartirildi, soliq stavkalari pasaytirildi va soliq ma’muriyatchiligi soddalashtirildi. Bu esa tadbirkorlik subyektlari faoliyatining kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

4. Xorijiy tajriba.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, soliq siyosatini tadbirkorlik ehtiyojlariga moslashtirish iqtisodiy o‘rinishni ta’minlaydi. Masalan, Germaniya va Janubiy Koreyada kichik biznes subyektlari uchun soliq rag‘batlari keng qo‘llaniladi (World Bank, 2021).

Mazkur tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish tadbirkorlikni yanada rivojlantirish imkonini beradi.



5. Tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirish yo‘llari.

Tadbirkorlik faoliyatini yanada kengaytirish uchun:

- soliq yukini optimallashtirish;
- soliq imtiyozlarining manzilliligini oshirish;
- soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish;
- soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlash zarur.

Bu chora-tadbirlar tadbirkorlik muhitining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, davlat soliq siyosati tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishda muhim strategik vosita hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xorijiy tajribalar (Estoniya, Belorussiya, Rossiya va Litva) shuni ko‘rsatadiki:

- Soliq imtiyozlari startap va kichik biznes subyektlarini jalb qilishda samarali vosita hisoblanadi;
- Soddashtirilgan soliqlar tizimi biznesni rasmiylashtirishni rag‘batlantiradi;
- R&D va investitsiya uchun qulay soliq sharoitlari innovatsiyalarni rivojlantiradi va iqtisodiy o‘rishga hissa qo‘shadi;
- To‘g‘ri soliq siyosati sarmoyaviy muhitni barqarorlashtiradi va biznes muhiti raqobatbardoshligini oshiradi.

Shu bilan birga, soliq siyosatini samarali amalga oshirish uchun davlatning aniq strategik yo‘nalishlari, nazorat mexanizmlari va monitoring tizimi zarur.

Ushbu mavzu doirasida **takliflarim** quyidagilardan iborat:



1. Soliq imtiyozlarini kengaytirish: Kichik va o'rta biznes, startaplar va innovatsion loyihalar uchun korporativ soliq, daromad solig'i va QQS bo'yicha imtiyozli rejimlar joriy etilishi lozim.

2. Soddashtirilgan soliq tizimini joriy etish: Tadbirkorlar uchun soliq deklaratsiyasi va hisob-kitob jarayonlarini soddashtirish orqali biznesni rasmiylashtirishni rag'batlantirish.

3. Investitsiyalarni rag'batlantirish: R&D, innovatsiya va yangi texnologiyalarni tatbiq etuvchi kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari va grantlar tizimini kuchaytirish.

4. Monitoring va baholash tizimi yaratish: Soliq siyosatining tadbirkorlikka ta'sirini doimiy monitoring qilish va samaradorlikni baholash orqali amaldagi siyosatni takomillashtirish.

5. Xalqaro tajribalarni o'rganish va moslashtirish: Estoniya, Belorussiya, Rossiya va Litva kabi davlatlarning soliq siyosati tajribasini o'rganib, mamlakatimiz sharoitiga moslashtirilgan amaliy choralarni ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5468-son Farmoni (2018).
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2020).
3. Bird, R. (2016). *Tax Policy and Development*. Baltimore.
4. Musgrave, R. (1989). *Public Finance*. New York.
5. OECD (2022). *Tax Policy Reforms*. Paris.
6. Rosen, H. (2018). *Public Finance*. McGraw-Hill.
7. Smith, A. (1776). *The Wealth of Nations*. London: Methuen.
8. Stiglitz, J.E. (2015). *Economics of the Public Sector*. New York: Norton.
9. Tanzi, V. (2013). *Taxation and Growth*. IMF.
10. World Bank (2021). *Doing Business*. Washington, DC.